SIRDARYO VILOYATI SIRDARYO TUMANI HOKIMI
Q A R O R I

2021 - yil 7 - oktabr 121-9-128-Q/21 Sirdaryo tuman hokimligi

Tumanda davlat axamiyatidagi 4R26 “Sirdaryo sh-Dehqonobad q- Qiyot q-Bekobod sh” avtomobil yo‘lining 0-8 kilometr oralig‘ida yuk mashinalari xarakatlanishini ta’qiqlovchi yo‘l belgisini o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonuni, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 19 maydagi 377-son “O‘zbekiston Respublikasi yo‘l xavfsizligini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi va 2019 yil 9 apreldagi 292-sonli “Yo‘l harakati qoidalariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qarorlari ijrosini ta’minlash, shuningdek fuqarolarning ushbu mazmundagi murojaatlarini ijobiy hal etish maqsadida Sirdaryo tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 21.06.2021 yildagi 09/170-sonli xatiga xamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Sirdaryo tuman Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining 21.06.2021 yildagi 09/170-sonli xati inobatga olinsin.

2. Sirdaryo Yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (B.Bektemirov) belgilangan tartibda quyidagi joylarga:

4R26 “Sirdaryo sh-Dehqonobad q-Qiyot q-Bekobod sh” avtomobil yo‘lining 0-8 kilometr oralig‘ida 3.4 “yuk mashinalari xarakatlanishini ta’qiqlangan” yo‘l belgisini o‘rnatsin.

3. Sirdaryo tumani Ichki ishlar bo‘limi YHXB (Sh.Aliboev) viloyat YHX boshqarmasi bilan birgalikda o‘rnatiladigan yo‘l belgilarini tegishli tartibda hisobga olib, yo‘l harakati xavfsizligiga rioya qilinishini nazoratga olsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari B.Berdiyev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **B.Mirzakulov**